

NAZAR ESHONQUL HIKOYALARIDA KOMPOZITSION MARKAZ

Oltinova Muqaddas Zayniddinova

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat til va adabiyot universiteti

Adabiyot nazariyasi va zamonaviy adabiy jarayon kafedrasini mustaqil izlanuvchisi

E-mail: muqaddaszayniddinova@gmail.com

Tel: +998882520903

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21196045>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Nazar Eshonqul hikoyalarining g’oyaviy-kompozitsion xususiyatlari tahlil qilinadi. Muallifning ramziy va metaforik tasvir usullari, inson ruhiyati va jamiyat muammolarini yoritishdagi badiiy mahorati tahlil qilinadi. Tadqiqot natijasida Nazar Eshonqul hikoyalarining yagona g’oyaviy tizim asosida shakllangani hamda ularda insonning ichki olami markaziy o’rin egallashi aniqlanadi.

Kalit so’zlar: g’oya, kompozitsion markaz, hikoya, ramz, metafora, badiiy detal, mustamlakachilik, inson ruhiyati.

Аннотация. В данной статье анализируются идейно-композиционные особенности рассказов Назара Эшонкула. Рассматриваются символические и метафорические способы художественного изображения, а также мастерство писателя в раскрытии внутреннего мира человека и социальных проблем. В результате исследования установлено, что рассказы Назара Эшонкула сформированы на основе единой идейной системы, в которой центральное место занимает внутренний мир личности.

Ключевые слова: идея, композиционный центр, рассказ, символ, метафора, художественная деталь, колониализм, психология человека.

Abstract. This article analyzes the ideological and compositional features of Nazar Eshonqul’s short stories. The study examines the author’s symbolic and metaphorical methods of representation, as well as his artistic mastery in depicting human psychology and social issues. The research concludes that Nazar Eshonqul’s stories are structured around a unified ideological system in which the inner world of the individual occupies a central place.

Keywords: idea, compositional center, short story, symbol, metaphor, artistic detail, colonialism, human psychology.

Kirish. Nazar Eshonqul zamonaviy o’zbek nasrining o’ziga xos badiiy tafakkurga ega namoyandalardan biri hisoblanadi. Uning hikoyalarida inson ruhiyati, milliy o’zlik, tarixiy xotira, erksizlik, ma’naviy inqiroz hamda jamiyat taraqqiyotiga daxldor muammolar ramziy va metaforik tasvirlar orqali yoritiladi. Adib asarlarining badiiy qimmatini nafaqat mavzu ko’lamining kengligi, balki g’oya va kompozitsiyaning o’zaro uyg’unligida ham namoyon bo’ladi. Chunki har qanday badiiy asarda g’oya kompozitsion markaz vazifasini bajarib, syujet, obrazlar tizimi, badiiy detallar va konfliktlarni yagona mazmuniy maqsadga yo’naltiradi. Nazar Eshonqul hikoyalarida ham g’oya asarning barcha tarkibiy qismlarini birlashtiruvchi markaziy unsur sifatida namoyon bo’ladi. Xususan, mustamlakachilik va sovet tuzumining inson ruhiyatiga ta’siri, milliy qadriyatlarning yemirilishi, e’tiqod va ma’naviyat masalalari adib ijodining yetakchi g’oyaviy yo’nalishlarini tashkil etadi. Mazkur maqolaning maqsadi Nazar Eshonqul hikoyalarida g’oyaning kompozitsion markaz sifatidagi funksiyasini aniqlash, uning syujet qurilishi, obrazlar tizimi, ramz va badiiy

detallar bilan bog‘liqligini tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot jarayonida qiyosiy-tahliliy va germeneytik metodlardan foydalanildi. Natijada adib hikoyalarida turli mavzu va motivlar mavjud bo‘lishiga qaramay, ularni birlashtirib turuvchi asosiy omil insonning ichki olami, ma’naviy qiyofasi va jamiyat bilan munosabatini yoritishga qaratilgan g‘oyaviy yaxlitlik ekani asoslab beriladi.

Asosiy qism. Badiiy asarda g‘oya va kompozitsion markaz masalasi uning mazmuniy yaxlitligini ta’minlovchi muhim nazariy tushunchalardan biridir. Har qanday adabiy asar muayyan hayotiy hodisa yoki muammo asosida yaratiladi va muallifning ana shu voqelik haqidagi munosabati, qarashi hamda xulosasi g‘oya sifatida namoyon bo‘ladi. G‘oya asarning ichki mazmunini belgilab beruvchi yetakchi omil bo‘lib, u barcha badiiy unsurlarni yagona maqsad atrofida birlashtiradi, asardagi barcha voqea-hodisalar, obrazlar va detallarni o‘ziga bo‘ysundiruvchi, ularni ma’lum bir nuqtaga jamlovchi asosiy tayanch nuqta hisoblanadi. Aynan shu jihatdan g‘oya – kompozitsion markaz vazifasini o‘taydi, u orqali syujet rivoji yo‘naltiriladi, konfliktlar keskinlashadi va asarning g‘oyaviy mohiyati yanada ravshanlashadi. Nazar Eshonqul asarlari insonni mulohaza qilishga, fikrlashga undaydi. Adib hikoyalarida insonning murakkab his-tuyg‘ulari va ruhiy kechinmalari turli ramzlar, detallar orqali ifodalanganini ko‘ramiz. Turk yurtlari tarixining har davrida unumdor tuproqlar, savdo-sotiq uchun ahamiyatli nuqtalarga ega edi. Nafaqat savdo-sotiq, balki adabiyot, qurilish jihatdan ham madaniy yuksalish markazlaridan biri bo‘lib kelgan, shu sababdan bir qancha davlatning hujumiga duch kelgan. Shu jumladan, ruslarning ham istilo qilishni orzu qilgan mamlakatlaridan biri edi. XIX asr o‘rtalarida boshlangan bu istilo harakati XIX asr oxiri – XX asr boshlarida zabt etish bilan yakunlandi. Salkam bir asrdan ortiqroq davom etgan mustamlakachilik davrida ruslar buyuk millat madaniyatini, millatini yo‘q qilish maqsadida o‘z tili va g‘oyalarini singdirishga harakat qildi. Albatta, bu jarayon jamiyatga, o‘zbek xalqining yashash tarzi, urf-odatlarini hamda ruhiyatiga ta’sir qilmay qolmadi. Istilo, mustamlakalik yillari hamda sovet tuzumi, bu davrdagi muammolar qoralangan va bu jarayonning inson “men”iga ta’siri tasvirlangan asarlar. Bunday asarlar sirasiga “Tobut”, “O‘lik mavsum”, “Muolaja”, “Maymun yetaklagan odam”, “Evolutsiya”, “Ozod qushlar” hikoyalarini kiritsak bo‘ladi.

“Evolutsiya” (“Istilo”) hikoyasida bosqinchilar obrazi va insonning o‘z yurtidan begonalashuvi ramziy tasvirlar orqali ochiladi. Qahramon qochish jarayonida asta-sekin o‘z qiyofasini yo‘qotib, vahshiylashib boradi, bu esa erksizlik inson shaxsiyatini ham yemirishi mumkinligini anglatadi. Qabriston manzaralari ajdodlar xotirasining tahqirlanishini ifodalaydi va g‘animlarning tubanligini ko‘rsatadi. Hikoyada odatda ijobiy talqin qilinadigan it obrazi ham salbiy ma’no kasb etib, inson va tabiat muvozanati buzilganini bildiradi. Asardagi qo‘rquv, ta’qib va ruhiy azoblar qatag‘on davri muhitini eslatadi. Qahramon tilidan berilgan parchalar jamiyatning yovuzlashib borayotgani va kelajak avlodning ham shu ruhda shakllanayotganini ko‘rsatadi. G‘animlarning bolalarni zo‘ravonlik orqali “tarbiyalashi” esa itoatkor avlodni shakllantirishga qaratilgan.

Nazar Eshonqul hikoyalari g‘oyaviy jihatdan uzviy bog‘liq bo‘lib, inson taqdiri, erksizlik, tobelik va manqurtlik muammolarini ochib beradi. Adib, shuningdek, tarixiy, mifologik va diniy motivlardan keng foydalanadi.

“Ajr” hikoyasi 1987-yili yozilgan bo‘lib, unda “Qur’oni Karim”da kelgan oyatlar va Muhammad alayhissalom hadislariga suyaniladi. Hikoya personajlari, asosan, ota hamda o‘g‘il. Hikoyada o‘g‘il tiriklik chog‘ida juda ko‘p gunohlarga qo‘l urgan. Jumladan, ko‘zi ojiz qizni zo‘rlagan, qiz farzandli bo‘lgach qizning otasi uni ham chaqalog‘ini ham chopib tashlaydi;



davlat lavozimida ishlagan vaqtlar ko‘p kishilarni qiynagan. Eng asosiysi esa o‘g‘il padarkush. Aynan mana shu gunohi uchun u qiyomatgacha Otasini yelkasiga ortib, Arosatning qip-qizil sahrosida azob-uqubat bilan qadam tashlaydi. “Qur’oni karim”da ota-ona hurmatini joyiga qo‘yish, ularning roziligini olishning ajri jannat ekanligi uqtiriladi. “Bismillohir rahmonir rohiym”. “Men qiyomat kuniga qasam ichurman. Va Men malomatgo‘y nafsga qasam ichurmanki, (hech shak-shubhasiz qayta tirilib, hisob-kitob qilinursizlar) (*Qiyomat surasi.1-2 oyatlar*)”. Yana boshqa bir surada esa: “Parvardigoringiz yolg‘iz uning o‘ziga ibodat qilishlaringizni hamda ota-onaga yaxshilik qilishlaringizni amr etdi. Agar ularning (ota-onangizning) birovi yoki har ikkisi sening qo‘l ostingda keksalik yoshiga etsalar ularga qarab “uf” tortma va ularning (so‘zlarini) qaytarma! Ularga (doimo) yaxshi so‘z ayt! Ular uchun, mehribonlik bilan, xorlik qanotini past tut-hokisor bo‘l va: “Parvardigorim meni (ular)go‘daklik chog‘imdan tarbiyalab-o‘stirganlaridek, sen ham ularga rahm shafqat qilgin” deb (haqlariga duo qil)” (*Al-isro surasi, 23-24 oyatlar.*) “...*Lekin, afsus, sizlar tug‘ildilaring, unib-o‘stilaring, so‘ng unib-o‘sgan erlaringga tupurdilaring, unib-o‘stirgan odamlarni qiyratdilaring. Yana ko‘kraklaringga mushtlab “Xalqparvarimiz, odamparvarimiz” deb da‘vo qildilaring...*”[4]. Ota jannatga, o‘g‘il do‘zaxga hukm qilingan. O‘g‘ilning do‘zaxi bo‘lishining yana bir sababi borligi yuqoridagi parchadan bilib olishimiz mumkinki, u o‘z xalqiga xiyonat qilgan. Yana bir katta gunohi borki, u kechirilmaz: “*Sizlarning katta xatolaring shuki, Uni ta‘qib qildilaring. Hamma narsaning boshlanishi U edi. Chunki U dunyoning ismi edi, U bu azaliy dunyoga ism bergan, zeb bergan usta edi. Dunyoni Undan ajratib olib bo‘lmas edi. Sizlar buni tan olmadilaring*”.[4] ya‘ni o‘g‘il Allohni unutgan. Bu Arosat yo‘li hali uzoq davom etadi, toki Oxiratgacha. Padarkush o‘g‘ilning yelkasida ketishdan ota ham charchagan. O‘g‘ilning tiriklik chog‘ida qilgan gunohlariga jazo shu, ammo uni hali katta jazo kutib turibdi.: “*Oz qoldi. Juda oz qoldi. Yelkangdan tushamanu, men o‘z yo‘linga, sen o‘z yo‘linga, boshqa qaytib ko‘rishmaymiz. Ko‘rishmaganimiz ham tuzuk. Men o‘zim o‘stirgan terakning qanday yonayotganini ko‘rishni istamayman.*” [4] (“Bas, badbaxt bo‘lganlar olov dalar. U yerda ular uchun dod-faryod bor”. (*Hud surasi 106-oyat*))

Nazar Eshonqul hikoyalari g‘oya jihatdan bir-biriga bog‘liqligi haqida gapirgan edik. “Ajr” hikoyasi diniy mavzuda bo‘lishiga qaramay unda tuzum bilan uzviy bog‘liqlikni kuzatishimiz mumkin. O‘g‘il nega otasini qoyadan itarib yubordi? Nega u Allohni unutdi? Nega o‘z qondoshlarini, yurtdoshlarini qiyratdi. O‘sha davr va unda yuritilgan siyosiy tuzum sabab emasmi? Albatta, shunday. Ushbu hikoyada ijtimoiy tuzumning shaxs ma’naviyatiga salbiy ta’siri, nafaqat haqotda, balki oxiratdagi ahvoli ham badiiy tasvirlangan. Bundan tashqari Qur’oni Karimning A’rof surasida keltirilgan Odam Ato va Momo Havoning jannatdan quvilishiga ham ishora berilgan: “*Hali bu mudhish dunyoga quvilmasdan oldin, chechaklar gul-gul ochilgan va daraxtu ko‘katlarga, hasharot-u hayvonlarga hali ism qo‘yilmasdan burun, hali o‘lim va hayotni kasb qilib olmaslaridan oldin* ” [4]

Hikoyada tarixiy obrazlarga ham to‘xtalib o‘tilgan. Bu yerda Xitoy yurishida kasallik sabab halok bo‘lgan Amir Temur ajdodimiz ham esga olingan. Hikoyada ota o‘tirgan g‘orga qilich-qalqon taqqan otliq kishilar kirib kelishadi: “... *менинг ғорға келиб қолиш саргузаштимни эшитишгач, сендан жуда ғазабланишди, ҳатто оқсоқроғи ҳозир бориб чопиб таишлайман деб ирғиб турди, лекин мен кўнмадим, ўғлим айбдор эмас, ўзим йиқилиб тушдим деб алдадим.* ... Ular ham menga o‘xshab o‘z ajali bilan o‘lmagan edilar, gaplariga qaraganda biri jangda, biri suiqaqsdada, biri kasal bo‘lib o‘lgandi. Otliqlar yuz yillardan beri bir vaqtlar o‘zlari zabt etgan mamlakatlarni aylanib yurisharkan va har yili

qish tushishi oldidan Chinmochinga yurish uyushtirishar va har doim mag‘lubiyatga uchrasharkan.” [4] Yana bir nuqta borki, bu parchada Sharof Rashidovga yoki qabrlari toptalgan boshqa bir ajdodlarimizga ishora bor: “Naq ustimda qiyomat qoyim boshladi chog‘i. Nimaning tovushi bu?! Muncha vahimali?! E-e, bular mozoristonni buzishyapti-ku! Aqldan ozishibdi u dunyodagilar... Ha, aniq, buzishyapti, yana, o‘sha mudhish qiyomat tovushi tobora yaqinlashib kelyapti...” [4]

Nazar Eshonqul hikoyalarining bosh mavzusi Vatan, mustamlaka yillar hamda o‘sha davr tuzumining “yuzi”ni ochish bilan birgalikda o‘sha davrda yashagan jamiyatning ruhiyati, axloqini tasvirlash. Xoh tarixda bo‘lsin, xoh hozirgi davr jamiyatda avj olayotgan ijtimoiy muammolarni va qusurlarni, ularning inson hayoti va qalbiga ta’sirini tahlil qilishni maqsad qiladi. Jamiyatdagi axloqiy, siyosiy muammolar aks ettirilgan asarlari fikrimizning isboti bo‘la oladi. Jumladan, “Qo‘l” hikoyasida shu vaqtgacha mavjud bo‘lgan hozir ham oramizda uchrab turadigan korrupsiya haqida metaforik usulda hikoya qilinsa, “Ochilmagan eshik”da oilaviy muammolar, “Sharpa” hikoyasida insonning ichki olamidagi ezgulik va yovuzlik, e’tiqod va iymonsizlik o‘rtasidagi kurash, “Qalb to‘zoni”, “Qatl” hamda “Xayol tuzog‘i” hikoyalarida globallashuv ta’sirida inson ruhiyatidagi muammolar ramzlar yordamida tasvirlanadi.

Bu o‘rinda muallifning jamiyatda mavjud bo‘lgan ijtimoiy muammolar aks etgan “Haykal” (2010) hikoyasida jamiyatdagi ijtimoiy muammolar ramziy tarzda yoritiladi. Voqealar mavhum makonda kechib, qahramonlar (N., shoir, rahbar, T.) noan’anaviy nomlanadi. Asarda haykaltarosh N.ga millat faxriga aylanishi kerak bo‘lgan uchta haykal yaratish vazifasi yuklanadi. U bu ishga jiddiy yondashib, tarixiy manbalarni o‘rganadi, mutaxassislar bilan maslahatlashadi va puxta eskizlar tayyorlaydi. Biroq uning ishlari bir necha bor rad etilib, vazifa boshqaga topshiriladi. Oradan vaqt o‘tib, shaharda aynan N. tayyorlagan eskizlarga asoslangan haykallar o‘rnatiladi, lekin u bu jarayondan chetda qoladi. Eng muhim nuqta shundaki, haykallarning barchasi bir xil – rahbar qiyofasida tasvirlangan bo‘ladi. Shu orqali muallif san’at va siyosat o‘rtasidagi ziddiyatni ochib beradi: asl maqsad tarixni tiklash emas, balki rahbarga yoqish va laganbardorlik qilish ekani ayon bo‘ladi. Hikoya jamiyatdagi ikkiyuzlamachilik, ko‘zbo‘yamachilik va o‘zgalar mehnatini o‘zlashtirish kabi illatlarni keskin tanqid qiladi.

Xulosa. Nazar Eshonqul hikoyalarining har birini bir necha jihatdan talqin qilish mumkin. Asardagi ishoralar, ramzlar sezilarli darajada ko‘pki, qaysi asarini tahlilga tortmaylik jamiyat, inson ruhiyatida bo‘layotgan evrilishlar to‘g‘risida mulohaza qiladi. Yozuvchi bir suhbatida hikoyalarni an’anaviy va modernizm usulda yozilgan deya bo‘linishga o‘zining fikrini bildirib, bunday bo‘linish xato ekanligini, hikoyalar iste’dod bilan yozilgan va aksiga kirishini aytib o‘tadi. Bizning fikrimizcha, muallif hikoyalari o‘zbek nasriga bir qancha noan’anaviy uslub (*qahramonlar nomlanishi, xronotop, noan’anaviy obraz, noan’anaviy detallar, metamorfoza*)larni olib kirolgan iste’dod bilan yozilgan hikoyalardir. Yozuvchi hikoyalarining mavzu ko‘lami ham o‘ziga xos. Muallif hikoyalarini asosan quyidagi mavzularda ekanligining, har bir mavzudagi asar bir-biri bilan chambarchas bog‘liqligini guvohi bo‘ldik:

Mustamlaka yillari, sovet tuzumi, erksizlik hamda bu sisyosiy muammolarning	Diniy-tasavvifiy hamda falsafiy motivlar aks etgan hikoyalar	Milliylik, hamda milliy ruh ufurib turgan oilalar	Jamiyatda uchrovchi ijtimoiy, axloqiy muammolar mavzusida
--	---	--	--

jamiyat hayoti va ruhiyatiga ta’siri mavzusida		tasvirlangan hikoyalar	
“Maymun yetaklagan odam”, “Muolaja”, “Tobut”, “Bevaqt chalingan bong”, “O’lik mavsum”, “Ozod qushlar”, “Evolutsiya”.	“Ajr”, “Bahouddinning iti”, “Bitik”, “Sharpa”	“Bepoyon osmon”, “Ochilmagan eshik”, “Qultoy”.	“Haykal”, “Qo’l”, “Farishta”, “Qalb to’zoni”, “Qatl”, “Xayol tuzog’i”, “Zulmat saltanatiga sayohat”.

Umuman olganda, mana bu hikoya bu mavzuda yozilgan deb chegaralashdan yiroqmiz. E’tiborli jihati shundaki, muallif hikoyalarini tadqiq qilar ekanmiz bir mavzuda bir necha jihatlarni qamray olganligini, eng asosiysi hikoya qaysi mavzuda bo’lmasin birinchi o’rinda inson qalbiga, uning ruhiy kechinmalariga urg’u berganligini guvohi bo’lamiz. Misol tariqasida birgina “Bevaqt chalingan bong” hikoyasini oladigan bo’lsak, hikoyada tuzum olib borgan qatag’on siyosatining inson taqdiriga ta’siri, davr amaldorlarining hamda jamiyat ma’naviy qiyofasi ochilishi bilan birga o’zbek xalqiga xos g’urur insonning qalbining qayeridadir yashay olishi aks ettirilgan.

Nazar Eshonqul o’z hikoyalarida qaysi mavzuni yoritmasin, qanday g’oyani ilgari surmasin, u uchun hikoya qahramonlarining ichki “men”ini topa olishi, uning ma’naviyati, ya’ni fikrlash qobiliyatiga egaligi, ruhiyati ahamiyatli. Shu bilan o’zbek hikoyachiligida o’zining uslubi, o’zining qahramonlari, o’zining asarda yoritgan, boshqalar ko’ra olmaydigan muammolarni metaforik ramzlar bilan tasvirlay olishi, kitobxonni mulohaza qilishga, fikrlashga undashi bilan ajralib turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – Toshkent: A. Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 2004. – B.142.
2. Shukurova B.B. Zamonaviy o’zbek hikoyachiligi poetikasi (Sh. Xolmirzayev, E. A’zam, N.Eshonqul ijodi asosida). Fil.fan.bo’y.fal.dok. (PhD) dis. – Buxoro, 2024. – 65 b.
3. Ҳамраев К. Ҳикоя композицияси. Монография. – Тошкент. 2020, – 49 б.
4. Эшонқул Н., Сайланма I (Ҳикоялар). – Тошкент: “Академнашр”, 2022. – 21 б.

Foydalanilgan internet manbalari:

1. www.academia.edu
2. <https://cyberleninka.ru>